

OROLQUMDA YANGI BARPO ETILGAN SAKSOVULZORLARDA SHISH HOSIL QILUVCHI ZARARKUNANDALARNING ZARARLOVCHI FAZASI

DOI: <https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/QAXAI/1068>

Shamuratova Nagima Genjemuratovna

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
«O'simliklarni himoya qilish va karantini» kafedra mudiri q.x.f.d., professor

Menlimuratova Saxipjamal Jenisbaevna

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
«O'simliklarni himoya qilish va karantini» kafedra 1-bosqich doktoranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Orolqumning Urgu va Surgul hudidida yangi barpo etilgan qora va oq saksovullarida rivojlanadigan shish hosil qiluvchi kana va zararli hasharotlar haqida erta bahor oylar moboynda kuzatuvlar olib borish natijasiga ko'ra, aynan zararlovchi fazasi haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Hozirgi kunda Orol dengizi tubida barpo etilgan saksovul o'rmonzorlarining zararkunandalar tasiri natijasida zararlanish darajasi oshib bormoqda. Saksovul o'simligi muhim qum tutuvchi o'simlik sifatida hukumatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *Orolqum, harorat, iqlim sharoitlari, biologik va ekologik xususiyatlari, mavsum, o'simlik, gallitsa, zararlilik darajasi, turlari, sistematika, qarshi kurash*

Annotatsiya: В данной статье представлена краткая информация о поражающей фазе, основанная на результатах наблюдений за клещами и вредными насекомыми, образующими опухоли, которые развиваются на вновь созданных черных и белых саксаулах в районах Ургу и Сургуль Аралкума в ранние весенние месяцы. В настоящее время уровень повреждения саксауловых лесов, созданных на дне Аральского моря, возрастает в результате воздействия вредителей. Растению саксаул уделяется большое внимание со стороны нашего правительства как важному пескоудерживающему растению.

Klyuchevie slova: *Аралкум, температура, климатические условия, биологические и экологические особенности, сезон, растение, галлица, степень вредоносности, виды, систематика, борьба с ними*

Abstract: This article provides brief information on the specific pest phase based on observations conducted during the early spring months of ticks and harmful insects that develop on newly established black and white saxaul trees in the Urgu and Surgul regions of the Aralkum. Currently, the level of damage to saxaul forests established on the bottom of the Aral Sea is increasing due to the impact of pests. Our government pays great attention to the saxaul plant as an important sand-holding plant.

Key words: *Aralkum, temperature, climatic conditions, biological and ecological features, season, plant, gallica, degree of harmfulness, species, systematics, control*

KIRISH

Maqolada Orolqumning Urgu va Surgul hudidida yangi barpo etilgan qora va oq saksovullarida rivojlanadigan, shish hosil qiluvchi gallitsa zararkunandasi haqida erta bahor oylar moboynda kuzatuvlar olib borish natijasiga ko'ra saksovul o'simligiga zarar beruvchi fazasi va biologik va ekologik xususiyatlari haqida qisqacha ma'lumot berilgan.


Hozirgi vaqtda Orol dengizining qurishi oqibatida qator ekologik muammolarning ko‘payishi kuzatilmoqda. Misol qilib aytadigan bo‘lsak oddigina ko‘ringani bilan bu ekologik muammolar o‘zining salbiy ta‘sirini ekologiya atrof-muhitga, insonlarga, issiq qonli jonzotlarga va albatta floraga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatib bormoqda. Bu ekologik muammolarning salbiy tasirini kamaytirish maqsadida bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Asosan ayni paytda qurigan Orol dengizi tubida yashil makon yaratish va maydonini kengaytirish kabi umummilliy loyihalar o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Bu yashil makon maydonini kengaytirishda asosiy o‘rinda sho‘l o‘simliklari yani amarant oilasiga mansub bo‘lgan o‘simlik turlari diqqatga sazovor bo‘lib, bu o‘simliklar sho‘l muhitida o‘sishga moslashgan va yer osti suvlari hisobidan o‘sib rivojlanadi. Bundan tashqari, bir dona saksovol o‘simligi 4 tonna qum tutishi adabiyotlarda keltirilgan.

Shu bois, davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida jahon hamjamiyati e‘tiborini yana bir bor davrimizning o‘tkir muammolaridan biri — Orolbo‘yi hududidagi ekologik holatga qaratib, jumladan, bunday dedi: “Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta‘sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o‘zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug‘dirmoqda”[1].

Erta bahorda olib borilgan monitoring ishlari natijasiga ko‘ra ayni paytda ushbu qum tutuvchi saksavul o‘simliklarida ularning fiziologiyasiga va o‘sib rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi zararli hasharotlarning zarari kuzatilmoqda. Bu zararkunanda o‘simlik uchun ahamiyatli bo‘lgan o‘simlik shirasi bilan oziqlanadi va o‘ziga hos shish hosil qiladi. Bu shishlar har hil ko‘rinishga ega va ushbu shishlar ko‘rinishi bilan bir biridan farqlanadi. Bu shishlar asosan o‘simlik tanasining javob reaksiyasi hisoblanadi. Sababi zararkunanda tuxum qo‘yganda zararkunanda o‘zidan maxsus kimyoviy modda ajratadi va o‘simlikga ta‘sir etib hujayralarning odatdagidan tezroq bo‘linishiga sabab bo‘ladi va kattalashib ketadi. Aynan shu joyida shishsimon tuzilma hosil bo‘ladi [2].

Shish hosil qiluvchi gallitsalarning zararlovchi fazasi uning lichinka yani qurt fazasi bo‘lib, ularning zarari juda kuchli hatto saksovol o‘simligining nobut bo‘lishiga ham olib kelishi mumkunligi aniqlandi.

Olingan namunalarni Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti laboratoriyasida maxsus mikroskop orqali tekshirib ko‘rish mobaynida aniqlanildiki, bu zararkunandaning lichinka fazasi juda aktiv ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Gallitsaning lichinkasi tana uzunligi bir necha millimetrdan 0,3-0,5 mm gacha bo‘ladi, eni 0,1-0,2 mm atrofida, rangi oqsariq, sarg‘ish yoki jigarrang tusli, tanasi yumshoq, oyoqsizva mayda tuklar bilan qoplangan, boshi aniq ajralib turmaydi, oyoqsiz, tanasi bog‘imlarga bo‘lingan, harakati sekin, lekin tanasi qisqarib-cho‘zilib sudralib harakat qiladi, juda sezgir lichinka (a.b.c-rasmlar)



a.b.c-rasmlar- shish hosil qiluvchi zararkunandaning zarar beruvchi fazasi.

Shish hosil qiluvchi zararkunandaning lichinka fazasida saksovol o‘simligi fiziologiyasining buzilishiga sabab bo‘ladigan jarayon yuz beradi. Sababi bu lichinkalar o‘simlik shirasi bilan

oziqlanib, o'simlik uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan oziq moddalarining almashuvi kabi jarayonlarning buzilishiga olib keladi. Bu esa o'simlikning borgan sari fiziologik protsesslarining buzilishi, o'sib rivojlanishining asta sekinlik bilan pasayishiga olib keladi [3].

Bu zararkunandaning hosil qilgan shishlarinin kesib ko'rganimizda bazi turlardan lichinkalar soni bitta yoki ikkita, bazi turlarini tekshirganimizda esa bitta gallning ichidan beshtadan o'ntagacha lichinkalar bo'lishi, hatto bazilarining ichida elliktagacha qurtlari yani lichinkalarning kanallari bo'lishi mumkunligi aniqlanildi.

Bu zararkunandaning zarari o'simlik uchun juda sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'simlik oqiri fiziologik jarayonnin buzilishi sabab nobud bo'ladi. Bunday holat yuz bermasligi uchun esa albatta vaqtida qarshi kurash choralarini ko'rish va uzluksiz monitoring ishlarini olib borish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://yuz.uz/uz/news/>
2. M.B.Mamaev. 1975 yil, Gollobrazuyushiye nasekomie saksoulovix lesonasajdeniye // Nasekomie kak komponenti biogeocenoza saksoulobogo lesa. M.: Nauka. S. 163-177.
3. N.T.Nurmurotov 1969 yil Zashita saksoulov ot nasekomix-vrediteley // Lesnoy x-vo, № 9. S. 115-118.